

**YANGI MILLIY UYG'ONISH DAVRI VA UYG'ONISH ADABIYOTINING BUYUK
VAKILI ABDURAUFG FITRATNING "MUNOZARA" ASARIDA
MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI TALQINI**

Xudayberdiyeva Mohichehra Alisher qizi

Buxoro davlat universiteti Tarix-Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi

3-kurs 5/2 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287445>

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk ma'rifatparvar, jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan biri Abdurauf Fitratning "Munozara" (Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'on munozasi) asarida ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari, "usuli Qadim" va "usuli jadid" maktabining bir biridan farqi, yangi jadid maktabining afzalliklari, Buxoro amirligining siyosiy-iqtisodiy manzarasi, aholining ijtimoiy turmush tarzi, ta'limi- tarbiyaviy ahvoli xususida so'z boradi. Zero bu ulug' adiblar ijodining mohiyati jamiyat va millatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy, Mahbudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi fidoiy adiblar qatorida, ehtimol, ularning oldingi safida Abdurauf Fitrat ham o'z elining aqli va qalb ko'ziga aylangan.

Kalit so'zlar: "Munozara", Abdurauf Fitrat, Mijmar, Hurriyat, Chig'atoy adabiyoti, Mahmudxo'ja Behbudiy, ma'rifatparvarlik g'oyalari.

**ОБЪЯСНЕНИЕ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ИДЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ДЕБАТЫ»
АБДУРАУФА ФИТРАТА, ВЕЛИКОГО ПРЕДСТАВИТЕЛЯ НОВОГО
НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ВОЗРОЖДЕНЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

Аннотация. В данной статье рассматриваются идеи просветительства, выдвинутые Абдурауфом Фитратом, великим просветителем и одним из известных представителей модернистского движения, в произведении «Мунозара» (диспут фаранга в Индии с мударрисом из Бухары о современных школах).), «древний метод» и «отличие «современной» школы, преимущества новой «джадидской» школы, политические и экономические условия Бухарского эмирата. Речь идет о ландшафте, социальном образе жизни населения, образовательной ситуации. Потому что суть творчества этих великих писателей служила возвышению общества и нации. Абдурауф Фитрат стал умом и сердцем своего народа среди самоотверженных писателей, таких как Абдулла Авлони, Махбубходжа Бехбуди, Абдулла Кадири, Абдулхамид Чолпан, Усман Насир.

Ключевые слова: «Дискуссия», Абдурауф Фитрат, Миджмар, Хуррият, Чигатайская литература, Махмудходжа Бехбуди, Идеи Просвещения.

**EXPLANATION OF ENLIGHTENMENTAL IDEAS IN THE WORK "DEBATE" BY
ABDURAUF FITRAT, A GREAT REPRESENTATIVE OF THE NEW NATIONAL
REVIVAL AND REVIVAL LITERATURE**

Abstract. *This article discusses the ideas of enlightenment put forward in the work of Abdurauf Fitrat, one of the great enlighteners and famous representatives of the Jadid movement, "Munozara" (a debate between a Farangi and a Bukhara teacher about Jadid schools in India), the difference between the "usuli Qadim" and "usuli Jadid" schools, the advantages of the new Jadid school, the political and economic landscape of the Bukhara emirate, the social lifestyle of the population, and the educational and upbringing situation. After all, the essence of the work of these great writers served to elevate society and the nation. Along with such selfless writers as Abdulla Avloni, Mahbudkhoj Behbudi, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cholpon, and Osman Nasir, perhaps in their forefront, Abdurauf Fitrat also became the eye of the mind and heart of his people*

Keywords: "Munozara", Abdurauf Fitrat, Mijmar, Hurriyat, Chigatay literature, Mahmudkhoj Behbudi, Enlightenment ideas.

KIRISH: Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha jadīd — yangi) – xix asr oxiri xx asr boshida turkiston, kavkaz, qrim, tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, xix asrning 80-yillarida qrimda vujudga keldi. Xix asrning 90-yillaridan o'rta osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: jadīd — yangi) – xix asr oxiri xx asr boshida turkiston, kavkaz, qrim, tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat[1]. Jadidchilik dastlab, xix asrning 80-yillarida qrimda vujudga keldi. Xix asrning 90-yillaridan o'rta osiyoda tarqaldi. Abdurauf fitrat 1886-yili islomiy madaniyatning markazlaridan biri buxoroda tavallud topgan. Otasi abdurahimboy zamonasining ma'rifatli boylaridan, onasi bibijon esa o'qimishli, o'z bolasi taqdirida muhim rol o'ynagan ayollardan

bo'lgan. Darvoqe, fitrat yuqorida tilga olingan anketada onasining ismini bibijon sifatida tilga olgan. Adibning boshqa qarindosh -avlodlari ham uning to'la ismi mustafbib bo'lganini unutib, bibijon ismi bilan yodlab yurishadi. Abdurahimboy ko'proq savdo ishlari bilan band bo'lgani sababli yosh abduraufning tarbiyasi ziyrak va zukko onasi mustafbibining qo'lida bo'lgan.

Abdurauf dastlab eski maktabda, so'ngra buxorodagi mashhur "mir arab" Madrasasida tahsil ko'rgan bo'lsada, ilmga chanqoqligi, "kitob shaydosi" bo'lganligi bois, mustaqil mutolaa orqasida aksar madrasadoshlaridan ancha ilg'orlab ketgan edi.

Fitrat 1909-1913 yillarda Turkiyada o'qib ijod etgan. Turkiyada ijod etgan asarlari. U Turkiyada "Munozara", "Sayha", "Yurt qayg'usi" nomli kitoblarini chop etgan. Fitrat 1912-yil 11-martda Buxorolik yoshlar Kogondagi maktab egasi Liviy(yaxudiy)ning moddiy yordamida "Buxoroi sharif", o'sha yilning 14-iyulida esa turkiy tilda "Turon" gazetasini nashr etishga muvaffaq bo'ldilar. Buxoro amirining 1917-yil 7-aprel farmoni (Manifesti)dan keyin Fitrat Samarqandga ko'chib borib, "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qiladi. Gazeta moddiy jihatdan og'ir ahvolda qolgach, muharrirlik lavozimini Muhammadqul O'rinboy o'g'liga topshiradi. Fitrat hayoti va faoliyatining Toshkent davrida ro'y bergan eng muhim voqeasi "Chig'atoy gurungi"ning O'zbekistondagi birinchi adabiy uyushma sifatida tuzilishidir. O'tgan asrning 20-yillarida yaratilgan adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid asarlarida "Chig'atoy adabiyoti", "Chig'atoy tili" atamaları ko'p uchraydi. Fitrat "Chig'atoy adabiyoti" degan maqolasida O'rta Osiyodagi turkiy tillarida yaratilgan adabiyotning "Chig'atoy adabiyoti"- deb atalishi Chingizxonning o'g'li Chig'atoy nomi bilan bog'liqligini e'tirof etgan. Fitratning bu uyushmani tuzishdan maqsadi, birinchidan, tarqoq holda yashayotgan ilm va ijod ahlini birlashtirish, ikkinchidan, shoir va yozuvchilarning yangi asarlarini tinglab, muhokama qilish, uchinchisidan, davrning adabiy- ma'rifiy hayotida faol ijod etish, to'rtinchisidan, musiqa va teatr ishlarini jonlantirish, beshinchidan, lug'at tarkibi va grammatik tuzilishi murakkab bo'lgan o'zbek adabiy tilini isloh qilish, arab va fors so'zlarini qadimiy turkiy so'zlar bilan almashtirish, rus tilidan kirib kelishi mumkin bo'lgan so'zlarning o'zbekcha muqobilini ishlash, xullas, yangi, zamonaviy o'zbek adabiy tilini yaratish edi.

Abdurauf Fitrat bo'lib, bu so'z tug'ma iste'dod, insonga alloh bergan yaratuvchilik qobiliyati ma'nolarini anglatadi. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, talabalik yillari **Mijmar** (Cho'g'don, xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish ma'nosida) taxallusi bilan ham g'azallar bitgan¹. **1909-yil "Jamayti xayriya" ning ko'magi bilan Istanbulga o'qishga borgan.**

Fitratning singlisi Mahbuba Rahim qizining eslashicha, uning ukasi Abdurahnon (o'sha paytda Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib, ishlagan) akasiga moddiy jihatdan yordam berib turgan. Fitrat Istanbul universitetida o'qish bilan birga u yerdagi "Doru-l-voizin" (Voizlar-ma'ruza qiluvchilar) madrasasida ham dars bergan. Bu madrasa Buxoro va Turkistondan o'qishga borgan yoshlarni universitet ta'limiga tayyorlash bilan ham mashg'ul bo'lgan. B.Qosimov ishlarida G'ozzi Olim Yunusov bilan Hamza ham bir muddat Istanbuldagi "Doru-l-voizin" madrasasida o'qiganligi haqida xabar beriladi².

ASOSIY QISM: «Usuli jadida» maktablarni nafligi va fununi zamoniya tahsilining buxoriylar uchun luzumi to'g'risida farangiy afandi ila mudarris Buxoriy janoblarini oralarida bo'lgan bahs va suhbat — «Munozara» ismida bir risola shaklida forsiy tilg'a tab' va nashr bo'lubdur. Bizda ko'zdan kechurdukki, haqiqatan buxoriylar uchun nofe'dur. Farangiy va mudarris tilidan bu muhim bahslik risolani tahrir etuvchi vahmi zoing'a arzi tashakkur qilarman. Inshoollo, bu risola buxoriylarni uyg'onmoqig'a bois bo'lub, «Munozara» muharririni rahmat ila yod etarlar. Va al-on bu risola turki tilida janob muallim hamshahrimiz Hoji Muin afandi tarafidan tarjima va ushbu gazit ila nashr bo'lub turubdur. Va ammo bizni fikrimizcha, Buxoro uchun eng muhim bir bahsni farangiy afandi faromush etibdurlar. Va ul eng muhim bahs buxoriylarni ruscha o'qumoq va rus madaniyatidin nafbardor bo'lmoqg'a targ'ib etmoqdin iborat edi. Xayr, balki farangiy afandi faromush etmay, ehtimolki, buxoriylarni taajjublari qo'zg'olmasun va «Munozara» risolasidin umid etilgon manfaati ma'naviya favt bo'lmasun tavhimi-la ruscha o'qumoq bahsiddin ko'z yumgandur, deb zan qilarmiz. Va-lo farangiy afandini natijai ma'lumotig'a nazaran o'rischa o'qumoqg'a tarafdordur, deb istidlol qilinadur va har bir ko'zi ochuq kishi-da buxoriylarni ruscha o'qumsqalarini, albatta lozim bilur. Buxoriy qarindoshlarimizni ruscha o'qumoglari to'g'risida muxtasaran biroz yozmoqni biz munda kerak bilduk va umid qilamizki, «Munozara» noshiri ikkinchi tab'ina ruscha o'qumoq luzumini ham risolag'a olmoq etdursa. Rusiya davlati — 100 milyun xalqlik va yer yuzini qaviy davlatlaridin biri. Buxoro hukumati ani himoyasig'a va aning uchun buxoriylarni ruscha o'qumoglari o'zlari uchun lozim va foe'dir. Buxoriylarni savdo ishlari Rusiya iladurki, tijorat ishlarini taraqqiy qildirmoq uchun, albatta, ruschag'a ehtiyoji tomalari bordur.

Fitrat deyarli 17 yoshidan boshlab avvaliga diniy, so'ngra badiiy ijod va ilmiy tadqiqot ishi bilan jiddiy shug'ullanadi. Buxoriy qarindoshlarimizni ruscha o'qumoglari to'g'risida muxtasaran biroz yozmoqni biz munda kerak bilduk va umid qilamizki, «Munozara» noshiri ikkinchi tab'ina ruscha o'qumoq luzumini ham risolag'a olmoq etdursa.

Rusiya davlati — 100 millyon xalqlik va yer yuzini qaviy davlatlaridin biri. Buxoro hukumati ani himoyasig‘a va aning uchun buxoriylarni ruscha o‘qumoglari o‘zlari uchun lozim va foe‘dir. Buxoriylarni savdo ishlari Rusiya iladurki, tijorat ishlarini taraqqiy qildirmoq uchun, albatta, ruschag‘a ehtiyoji tomolari bordur. Buxoroda tilgirof, po‘chta, temur yo‘li va bonk va mol, anjomaning hamli va naqliva optek, do‘qtur va hifzil sihata teyishli ishlar va lavozimoti madaniya va zamoniya va xorijag‘a mutaalliq barcha mavod kofaruslar vositasi-la joriy bo‘lurki, bul to‘g‘rilardan ruschag‘a buxoriylarni ehtiyojlari shadiddur. Rusiya ila tijorati bor har bir buxoriy va Buxoroni har bir hukumat doiralarini ruschaga bor ehtiyojini har kimdan avval buxoriylarni o‘zlari iqrar edarlar.

Kishi yo‘qligidin al-on Buxoro hukumatini xidmatidagi tarjimonlar kafkaziyy va turkistoniylardin iboratdur. Buxoriylarni ruscha o‘qumoglari uchun dalil lozim bo‘lsa, faqat Rusiyani... jihatidin Buxorog‘a hamsoyaligi eng oliy dalildur. Holbuki, Buxoro davlatimizni himoyasida, ya‘ni hovuchindadur. Nasora va majus davlatlarini aytmay qo‘yduk. Bul vaqt Usmonli islom davlati katta maktablarig‘a ruscha o‘qutadur va Rusiyag‘a talaba yuboradur. Turk qarindoshlarimizni har biri Rusiya musulmonlarini ruscha o‘qumoqg‘a tashviq etarlar. Hatto, Istanbul shayxulislomi hazratlari Rusiya musulmonlarini ruscha o‘qumoqg‘a buyuradurlar. Chunonchi, o‘tgan sana Samarqand hojilaridan ikki nafar mudarris shayxulislom janoblarini xizmatlariga musharraf bo‘lub ekanlarki, usuli jadid va ruschani luzumidin bayon etib, Turkistoniylarg‘a ruscha o‘qumoqg‘a tashviq etmoqg‘a buyurubdurlar. Misrdin, Shom va Arabistondin, Istanbuldin va Erondin Rusiya maktablarig‘a talaba kelganda, Buxorodin na uchun talaba kelmaydur? Buni sababi buxoriylarni g‘aflati va zamondin xabarsizligi deyurlar. Bul joyg‘a buxoriylar u qadar kaholat etdilarki, hatto, rasmiy doiralarida birorta tarjimonlari yo‘qdur. Xo‘b, Buxoroda usuli jadidani qo‘ymaganlaridek, ruschani-da ulamo qo‘ymadilar deduk. Ey, shogirdlarni Samarqandda, Turkistonda va yo doxiliy Rusiyag‘a na uchun yuborilmaydur? Samarqandda Buxorodin gado, o‘g‘ri, qimori, juvon-bachcha kelar. Hatto, deyurlarki, fohishalar ham kelur, bularg‘a ulamo bir shay demas va xabardor bo‘lmas. Talabag‘a tamoman mone’ bo‘lurlar. Yo‘q, bul joyg‘a ulamog‘a yopishmoq kerak emas, balki boshqalarg‘a lozumdur. Buxoroning muhtaram hukmronlarina, Buxoroning tujjori kiromiga biz min g‘ayri hadarz qilarmizki, ruscha o‘qutmaqni muborak fikrlarig‘a keltirsalar, Rusiya davlati Buxoroning faqat bir hamsoyasi emas, balki homiysi, vasiy va murabbiyi davlatidur. Aning uchun ruscha bilmoq va rus oliy va katta maktablarig‘a kirmoq buxoriylarni hayoti va saodati uchun alramdu. Ikki milyo‘n buxoriylardin nisfi asr zarfida bir nafar tarjimon chiqmaganligi buxoriylarni loqaydliklarig‘a dalil bo‘lur. Bu nimadan kelur? Albatta, Buxoro ila Rusiya orasidagi munosabatni bilmaslikdin kelur.

Binobarin, Rusiya ila Buxoro beyindagi munosabati siyosiyani har zamon aholig'a bildirmoq kerakdur. Biz siyosiy kishi emas va illo bul to'g'ridagi fikrimizni ochiq suratda yozarduk. Shu qadar bilarman,ki, rasman Buxoro hukmati Rusiya davlatini himoyatig'adur. Buxoroning bosh hukmroni ma'nan baoliy amir hazratlarini amoralari Rusiyadavlati tarafidin tasdiq qilinadur. Buxoroni xorijiya ishlari Rusiya davlati tarafidin ijro qilinadur. Xorijiya davlatlari, masalan, Eron, Afg'on va yo Usmonli davlatlari-la Buxoro hukumatini xat va xabar qilmog'i lozim kelsa, Rusiya davlati vositasi-la muomala qiladur. Buxoro ahli xorijiyag'a chiqmoqchi bo'lsa, Rusiya rahol hukumatini ruxsati lozimdur. Buxoro uchun boj va po'shlina Rusiya davlatini ixtiyori ila bo'lur. Bilmoq kerak,ki, o'ruscha o'qumoq ila kishi kofir bo'lmaydur va yo o'ruslar bizg'a dinlarini ta'lim qil-maydur.

Masalan, bu kun Samarqand muxtalif maktablarig'a yuzdin ziyod musulmon bolasi bor va alarni hech birig'a nasoro dinini ta'lim qilinmaydur. Samar-qand e'dodiy gimnoziyo maktabini bu kun undin ziyoda musulmon bolasi bor. U jum.ladin biri manim o'g'lim-dur. Va na vaqt,ki, bolalarg'a nasoro dinini ta'lim berarlar, g'ayri ruslarni, xoh musulmon va yo yahud va hatto, armani bo'lsun, maktabdin chiqoradurlar. Hatto, nasoro aqidasi ta'limi vaqtida yoshirin maktabda qolgan g'ayrirus shogirdg'a jazo beriladur. G'ayriruslar ruscha o'qugandan ilmi dunyoviy va hayog-qa mutaalliq funun o'quydurlar va har bir musulmon-da rumcha va yo farangcha shuni o'qivdur.

Buxoroni o'rta millati uchun avomcha so'ylayinki, turklar, ibroniylar, turkistoniylar, qozoniy, o'run-burg'iy va kafkoziylar hamchunonki, ruscha o'qusalar ham kofir bo'lmaydilar.

Buxoriylar ham ruscha o'qugan ila kofir bo'lmaydurlar. Afg'on hukumati ila ingliz davlati orasida munosabati siyosiya mavjud va ham hamsoyadur. Oni uchun afg'onlar Hindiston inglisi-g'a va nufusi Angliyada o'z nafii uchun talaba yuboradur. Holbuki, hech bir afg'on ingliz bo'lgan yo'q.

Inchun, bu xoriylar-da Turkiston ustig'a va yo Rusiyag'a o'z naflari uchun talaba yuborsalar, xotirjam bo'lsunlarki, o'rus bo'lmaydurlar. Shuni-da yozayin, bu xoriy qarindoshlarimiz bilsunlarki, bu so'zlarni biz musulmonligimiz uchun va Buxoroni taraqqiysini xohlaganimiz uchun yozarmiz. Gumon qilinmasunki, o'ruslar bizg'a yozdiradur.

Xulosa: "Munozara" asari Buxoro amirligida ta'qilab qo'yilishiga qaramasdan, turli yo'llar bilan Buxoroga olib kelinib, keng tarqaladi. Dastlab "Munozara" asari 1911-yilda Hoji Muin Shukrulloh o'g'li tarjimasida "Turkiston viloyatining gazetasi"da, bosib chiqilgan, keyinchalik esa, 1913- yilda Behbudiy so'zboshisi bilan alohida kitob holida nashr qilingan. Dastlab, bu asar teatrlarda ayrim qismlari tushurilgan holda sahnalashtiradi.

Munozara asari Buxoro amirligi va Rossiya hukumati tomonidan ta'qiq qilinishiga qaramasdan butun Turkiston o'lkasida, sharq va g'arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan va mashhur bo'lgan. Xalqning ko'zi ochilishida muhim rol o'ynaydi.

REFERENCES

1. Fitrat. A. Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va havaslilari uchun qo'llanma/ Nashrga tayyorlovchi H. Boltaboev.-Toshkent:O'qituvchi,1995.
2. Boltayev.H. Fitrat va jadidchilik.- T.,A. Navoiy nrmidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2007-140-b
3. Fitrat. Tanlangan asarlari. Ijild.- T., Ma'naviyat.200-47-95b
4. Mahmudxo'ja Behbudiy "Munozara" haqida.-" Turkiston viloyati" gazetasi-1911-y.29-sentabr 73-son.